TOSHKENT SHAHRI YASHNOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 11-noyabr | 216-14-203-Q/24 | Yashnobod tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini 2025-yil uchun band qilib qoʻyish toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 20-oktabrdagi “Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-642-sonli Qonunining 39-moddasi, Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrda qabul qilingan “Nogironligi boʻlgan shaxslarning huquqlar toʻgʻrisidagi” OʻRQ-641-son Qonuni, Oʻzbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son Qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga (Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 11.12.2017-y., 09/17/965/0393-son) asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun tumanda 2025-yil uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N :

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 2025-yilda ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar roʻyxati 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

2.“Aholi bandligi toʻgʻrisida”gi Oʻzbekistan Respublikasi Qonunining 39-moddasiga asosan, tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish oʻrinlarining eng kam soni 2-ilovaga muvofiq hodimlarning roʻyxat boʻyicha oʻrtacha soni 1200 nafarni tashkil etadigan (4.47 foiz) miqdorida, shu jumladan:

- 14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz ota yoki ona, shuningdek, ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni – 234 ta (0,86 foiz);

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni -677 ta (2,52 foiz);

- O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni - 83 ta (0,31 foiz);

- nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni - 34 ta (0,13 foiz);

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni - 32 ta (0,12 foiz);

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni - 37 ta (0,14 foiz);

- Odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni - 10 ta (0,04 foiz);

- oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni – 94 ta (0,35 foiz) miqdorida ish o‘rinlari zaxirasi belgilansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va hodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo‘lishi kerak:

- 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

- safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekistan Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun - ularning professional tayyorgarligiga mos bo‘lgan ish o‘rinlari;

- nogironlar uchun - mehnat sharoitlari boʻyicha attestatsiyadan oʻtkazilgan va hodimga ularning sogʻligi holatini va mehnat faoliyatiga toʻgʻri kelmaydigan, belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini toʻsiqsiz bajarish imkonini beradigan ish oʻrinlari;

- pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligiga mos boʻlgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari;

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga koʻra tibbiy tusdagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari;

- odam savdosi qurbonlari uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari.

- oilaviy (maishiy) zoʻravonlik natijasida jabrlanganlar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari.

4. Ish oʻrinlari band qilib qoʻyiladigan kasblar va lavozimlar:

- muhandislar, iqtisodchilar, hisobchi, hisobchi-taftishchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy hodim, ish yurituvchi, oʻqituvchi, tarozibon, elektrik va avtoaravacha haydovchisi, tashuvchi, farrosh, oʻtyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EXM operatori, yukchi, ishchi, bogʻbon, qorovul.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari:

- Oʻzbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga muvofiq, ushbu qarorning 1-ilovasida koʻrsatilgan ish oʻrinlari tashkil etilishini taʼminlasin;

- 2025-yil boshlanishidan kamida 10 kun avval, zaxiraga qoʻyiladigan ish oʻrinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish oʻrinlari zaxiraga qoʻyilishini va tayyorligini taʼminlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimini xabardor qilsin;

- Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish oʻrinlarining qolgan qismini zaxiraga qoʻyish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida taʼminlasin, bu haqda tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka

koʻmaklashish boʻlimini birinchi chorak tamom boʻlgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

- tashkilotlar har oyning yakuni bilan keyingi oyning 1 sanasidan oyning 5-kunigacha tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl boʻyicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish toʻgʻrisida axborot taqdim etib borilishini taʼminlasin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlari tayyorligi toʻgʻrisida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qoʻyiladigan ish oʻrinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining amalda tayyor emasligi tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash boʻyicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotlarning mansabdor shaxslariga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda maʼmuriy javobgarlik belgilanganligi qayd etilsin.

7. Tuman Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi (J.Ismoilov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 1-ilovasida koʻrsatilgan tashkilotlar rahbarlarining eʼtiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni taʼminlasin.

8. Yashnobod tuman hokimining 2023-yil 27-oktabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarini 2024-yil uchun band qilib qoʻyish toʻgʻrisida”gi 207-14-203-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qaror rasman eʼlon qilingan kundan boshlab 3 oydan keyin kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi oʻrinbosari L.P.Temirov zimmasiga yuklatilsin.

Yashnobod tumani hokimi



B.Raxmankulov

Yashnobod tuman hokimining
2024-yil 11-noyabrdagi
216-14-203-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Яшнобод туманидаги ташкилотлар бўйича ижтимоий ҳимояга муҳтож, иш топишда қийналаётган ва меҳнат бозорида тенг шартларда рақобат қила олмайдиган шахслар учун 2025 йил учун белгиланган иш ўринлари

№	Ижтимоий муҳофазага муҳтож, иш топишда қийналаётган ва меҳнат бозорида тенг шартларда рақобатлаша олмайдиган шахсларни ишга жойлаштириш учун иш ўринларини белгилаш таклиф этилаётган ташкилотлар рўйхати	Манзил	Ташкилотнинг СТИР	Штат жадвали бўйича ходимларнинг умумий сони	Келгуси йилга захирага қўйиш таклиф этилаётган иш ўринлари сони	Шундан:							
						ўн тўрт ёшгача ва ногирон болалари бўлган ёлғиз ва кўп болали ота-оналар -	умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларини тамомлаган ёшлар, шунингдек, олий таълим муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган битирувчилари-	сафарбарлик чақируви захирасида хизматни ўтаган ва Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафларидан муддатли ҳарбий хизматдан бўшатилган шахслар-	ногиронлар учун-	пенсия олди ёшидаги шахслар учун-	жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки суднинг қарорига кўра тиббий тусдаги мажбурлов чоралари қўлланилишидан озод қилинган шахслар-	одам савдоси қурбонлари-	оилавий (маиший) зўравонлик натижасида жабрланганлар учун

1	"TEXNOPARK" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, ELBEK KO`CHASI, 61-UY	306493973	3307	147	29	88	11	3	1	5	1	9
2	"HUMANS" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, MAXTUMQULI KO`CHASI, 2-B UY	306624856	3112	139	27	86	10	2	1	4	1	8
3	TOSHKENT SHAHAR ELEKTR TARMOQLARI MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Toshkent shahri, Yashnobod tumani Muxtor Ashrafiy MFY, Muxtor Ashrafiy ko`chasi, 9-uy	311162458	1903	85	16	54	6	1	1	3	1	3
4	"TOSHKENT MEHANIKA ZAVODI" AJ	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, ELBEK KO`CHASI, 61-UY	200837470	1030	46	8	26	3	1	1	3	1	3
5	"O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI TIBBIYOT BOSH BOSHQARMASI ``1-SONLI MARKAZIY KONSULTATIV-DIAGNOSTIK POLIKLINIKASI`` " DAVLAT MUASSASASI	Toshkent shahri, Yashnobod tumani S.AZIMOV KO`CHASI, 67-UY	200555411	890	39	7	23	2	1	1	1	0	2
6	“AVRASYA LOJISTIK” MChJ	Toshkent shahri, Yashnobod tumani Дустобод МФЙ,	308778101	896	40	7	24	2	1	1	1	1	3

		Элбек кучаси, 61-уй											
7	"STEEL PROPERTY CONSTRUCTION" MCHJ	Toshkent shahri, Yashnobod tumani Temirchi ko`chasi, 19-uy	304938427	722	32	6	19	2	1	1	1	0	2
8	I,IRGASHEV nomli 4-son klinik shifohonasi	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, BIRLASHGAN KO CHASI,1-UY,	200555428	635	29	5	19	1	1	1	0	0	2
9	"TOSHKENTVINO KOMBINATI" AKSIYADORLIK JAMIYATI	Toshkent shahri, Yashnobod tumani ISTIQBOL KO`CHASI, 45-UY	200547634	624	27	5	17	1	1	1	0	0	2
10	"O‘ZYO‘LKO‘PRI K KLASTERI" DAVLAT MUASSASASI	Toshkent shahri, Yashnobod tumani O'rta Masjid MFY, Oxang'rabo ko'chasi, 12-uy	200836188	512	22	4	11	2	1	1	1	0	2
11	EAST TELECOM	Do'stabod MFY, MAXTUMQ ULI KO'CHASI, 130-UY	204663354	560	25	4	14	2	1	1	0	1	2
12	ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННО СТЬЮ "AKFA FOOD SERVICES"	Toshkent shahri, Yashnobod tumani ELBEK KO'CHASI, 61-UY	301667695	503	22	4	12	1	1	1	1	0	2
13	"O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI HUZURIDAGI ELEKTR ENERGIYASI NEFT	Toshkent shahri, Yashnobod tumani TO'YTEPA MFY, ISTIQBOL KO'CHASI, 21-UY	310705438	458	20	4	10	1	1	1	1	0	2

	MAHSULOTLARI VA GAZDAN FOYDALANISHNI NAZORAT QILISH INSPEKSIYASI" DAVLAT MUASSASASI												
14	Тошкент давлат стоматология институти	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, TARAQQIYOT KO CHASI, 103-UY	303033866	438	20	3	11	2	1	1	0	0	2
15	"CAMPALIA" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONASI	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, YASHNOBOD TUMANI,KURUV CHILAR KUCHASI DOM 29-UJ	302363425	429	23	3	10	2	1	1	3	1	2
16	"YASHNOBOD TUMANI OBODONLASHTI RISH BOSHQARMASI" davlat muassasasi	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, FARG ONA YO LI KO CHASI,33-UY,	200838304	531	31	6	15	3	1	1	2	0	3
17	BOLALAR MILLIY TIBBIYOT MARKAZI	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Parkent ko'cha 294	207325289	435	19	4	11	1	0	1	0	0	2
18	"ELEKTROMAGN IT MOSLASHUV MARKAZI" DAVLAT UNITAR KORXONASI	Toshkent shahri, Yashnobod tumani Farg`ona yo`li ko`chasi, 15-uy	201057444	425	19	4	10	1	1	1	0	0	2
19	"PIT STOP MOTORS" MCHJ	Toshkent shahri, Yashnobod tumani DO'STOBOD MFY, MAXTUMQULI	304874476	415	17	3	9	1	1	1	0	0	2

		KO'CHASI, 79-UY											
20	Республика ихтисослаштирилган травматология ва ортопедия илмий-амалий тиббиёт маркази	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, MAXTUMQULI KO`CHASI .78-UY	200555332	384	17	3	9	1	1	1	0	0	2
21	"TOSHKENT XALQA AVTOMOBIL YO`LIDAN FOYDALANISH UCHASTKASI" UNITAR KORXONA	Toshkent shahri, Yashnobod tumani Katta Olmos ko'chasi, 79-uy	302633413	367	16	2	9	1	0	1	1	0	2
22	Яшнобод туман тиббиёт бирлашмаси	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, ,TA RAQQIYOT KO`CHASI,2-UY,	200838288	326	14	2	7	1	1	1	0	0	2
23	"SERENE HEALTHCARE" mas`uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Yashnobod tumani M.ASHRAFIY 2-BERK KO'CHASI, 9-UY	304411577	305	13	2	7	1	0	1	0	0	2
24	Ўз.Рес.ТИФ миллий банки	Тошкент шахар, Истиқбол кўчаси 23-уй	200836354	308	13	2	6	1	1	1	0	0	2
25	"ENERGOTA'MIR " AKSIYADORLIK JAMIYATI	Toshkent shahri, Yashnobod tumani MO'YNOQ KO'CHASI, 201-UY	200838003	297	13	2	6	1	0	0	2	0	2
26	"SERENE PHARMA" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, M.ASHRAFIY 2-BERK KO`CHASI, 9-UY	207150760	286	12	2	6	1	0	1	0	0	2

27	ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "BETOMAX BETON"	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, OHANGRABO, 7	304071811	265	12	2	6	1	0	0	1	0	2
28	"Тенге Банк" АТБ	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, YASHNOBOD TUMANI,PARKENT KUCHASI 66 UJ	207297973	243	11	2	6	1	0	0	0	0	2
29	"UZCARLSBERG" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT XORIJIY KORXONA	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, TEMIRCHI KO`CHASI, 1-UY	205768087	257	11	2	5	1	0	0	0	1	2
30	Тошкент шаҳар болалар тиббий маслаҳат-диагностика маркази	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI , ,MAXTUMQULI KO`CHASI,2-UY,	200835664	263	11	2	6	1	0	0	0	0	2
31	"Ўзэнергоинжиниринг" АЖ	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, YASHNOBOD TUMANI, M.ASHRAFIY KO`CHASI, 1-MUYULISH,, 9-UY,	200837409	185	8	1	3	1	1	0	1	0	1
32	Тошкент давлат стоматология институти клиникаси	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, TARAQQIYOT KO`CHASI 103-UY	303211043	204	9	2	4	1	0	1	0	0	1

33	"O'ZBEKISTON SHAMPANI" акциядорлик жамияти	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, S.MASHXADIY KO`CHASI, 186-UY	200547738	206	10	2	5	1	0	0	0	0	2
34	"KDV UZB" MCHJ XK	Toshkent shahri, Yashnobod tumani TEMIRCHI, 2	305499063	228	10	2	3	1	1	0	1	1	1
35	MCHJ TECHNO COMMERCE	Toshkent shahri, Yashnobod tumani MAXTUMQULI KO'CHASI	304033027	201	10	2	4	1	1	0	1	0	1
36	"CENTROPOLIS" MCHJ	Toshkent shahri, Yashnobod tumani Maxtumquli ko'chasi	307913314	186	8	1	3	1	1	0	1	0	1
37	"TELERADIOKOMPANIYA ZO`R" MCHJ	Toshkent shahri, Yashnobod tumani ELBEK KO`CHASI, 8-UY	200242120	174	7	1	4	1	0	0	0	0	1
38	"ESTEREN DISTRIBUTION" MCHJ XK	Toshkent shahri, Yashnobod tumani JARQO'RG'ON MFY, JARQO'RG'ON KO'CHASI, 47A-UY	308984036	149	6	1	1	1	0	0	1	1	1
39	ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "EURO PACK"	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, NIGORA KO`CHASI, 37"A"-UY	302954970	187	8	1	3	1	1	0	1	0	1
40	"NEFT GAZ BINO INSHOAT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, ISTIQBOL KO'CHASI, 21-UY	204398446	157	6	1	2	1	0	0	1	0	1

41	"TOSHKENT SHAHRIDAGI "ISHGA MARHAMAT" MONOMARKAZI" DAVLAT MUASSASASI	Toshkent shahri, Yashnobod tumani PARKENT KO'CHASI 331-uy	305775764	139	6	1	4	0	0	0	0	0	1
42	Тошкент шаҳар 2-сон юқумли касалликлар клиник шифохонаси	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, AVIASOZLAR 4-MAVZESI	203344506	133	5	1	3	0	0	0	0	0	1
43	"G`ULOMJON NEYRO SERVIS" mas`uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Yashnobod tumani ALIMKENT 1-TOR KO'CHASI, 20-UY	303021350	112	5	1	2	1	0	0	0	0	1
44	ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "MDS-SERVIS"	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, BOTKINA KO`CHASI, 110/3-UY	201873499	103	4	1	2	1	0	0	0	0	0
45	"Қон препаратлари" ИИЧК	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI , ,M.RIYOZIY 1 KO`CHASI 2-UY	200835671	104	4	1	2	1	0	0	0	0	0
46	Яшнобод туман 28-сон оилавий поликлиника	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI , ,SHOHSANAM KO`CHASI,2-UY,	203283306	107	4	1	2	0	0	1	0	0	0
47	Яшнобод тумани 156-умумтаълим мактаби	Джаркўргон кўчаси 4 уй	300344308	74	4	1	2	1	0	0	0	0	0
48	Яшнобод тумани 170-умумтаълим мактаби	Джаркўрғон кўчаси 20 уй	300442565	112	5	1	2	0	1	1	0	0	0

49	СП ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "SHAFFOF SERVIS"	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, FARG`ONA YO`LI KO`CHASI, 7-UY,	203078765	114	4	1	2	0	0	1	0	0	0
50	Яшнобод туман 67-сон оилавий поликлиника	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, 58а харбий шахарча KO`CHASI, Олмос МФЙ	309592373	105	4	1	3	0	0	0	0	0	0
51	Яшнобод туман 29-сон оилавий поликлиника	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI , ,FARG`ONA YO`LI KO`CHASI,543-UY,	203283298	114	5	1	3	0	0	1	0	0	0
52	Яшнобод тумани 227-умумтаълим мактаби	Хуснобод кўчаси, 39 уй	300050817	111	5	1	3	0	0	1	0	0	0
53	Яшнобод туман 27-сон оилавий поликлиника	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, ,JARQORG ON KO CHASI,37-UY,	203283281	106	4	1	3	0	0	0	0	0	0
54	Яшнобод тумани 282-умумтаълим мактаби	Тузель 3-мавзеси 16 а уй	204245454	145	6	1	5	0	0	0	0	0	0
55	61-SONLI UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI , ,AVIASOZLAR KO`CHASI, 1-MAVZE, 78-UY	300447795	111	5	1	4	0	0	0	0	0	0

56	Тошкент шаҳар тиббий маслаҳат диагностика маркази	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, M.ULUGBEK 15,	202526628	112	5	1	2	0	1	1	0	0	0
57	Яшнобод тумани 307-умумтаълим мактаби	С.Машхадий кўчаси 123\1 уй	203372685	115	5	1	4	0	0	0	0	0	0
58	Яшнобод тумани 339-умумтаълим мактаби	58 А ҳарбий шаҳарча	309040514	143	6	1	5	0	0	0	0	0	0
59	Яшнобод тумани санитария-эпидемиологик осойишталик маркази	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, TARAQQIYOT 1BERK 2TOR 6	202721544	99	4	1	3	0	0	0	0	0	0
60	"SAHOVAT-NON" mas'uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Yashnobod tumani Tuzel 1-mavze Parkent yo'li va Proektnaya ko'chasi, 35-g-uy	201999870	77	3	1	2	0	0	0	0	0	0
61	"TOSHKENT METALLKONSTRUKSIYA" mas`uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Yashnobod tumani JARQO'RG'ON KO'CHASI, 22A-UY	200547247	76	4	1	1	2	0	0	0	0	0
62	"Республика марказий маслаҳат -диагностика поликлиникаси" давлат унитар корхонаси	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, QORASUV KO`CHASI, , 25-UY,	202923498	71	3	1	2	0	0	0	0	0	0

63	УЧРЕЖДЕНИЕ "TOSHKENT SHAHRIDAGI ADJU UNIVERSITETI"	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Асалобод 113, 113A	207323710	71	3	1	2	0	0	0	0	0	0
64	TOSHKENT SHAHAR HOKIMI MAHKAMASINING MADANIYAT BOSH BOSHQARMASI TASARRUFIDAGI YASHNOBOD TUMANI BERDAQ NOMLI 10-SONLI BOLALAR MUSIQA VA SAN`AT MAKTABI	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, YASHNOBOD TUMANI.AVIASOZLAR KO`CHASI.1-A-UY	205732204	60	2	1	1	0	0	0	0	0	0
65	Яшнобод тумани 67-умумтаълим мактаби	Toshkent shahri, Yashnobod tumani XUSNOBOD KO`CHASI	300442519	65	5	1	3	1	0	0	0	0	0
66	"VAZIRA-BIZNES" mas`uliyati cheklangan jamiyati	Toshkent shahri, Yashnobod tumani UYSOZLAR KO`CHASI, 7-UY	204778147	65	5	1	2	1	0	0	0	0	1
67	"SPORT JIXOZ L UX" XK	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Murabbiylar 113-uy	206276328	60	5	0	1	0	3	0	0	0	1
68	Яшнобод тумани 2-сонли болалар-ўсмирлар спорт мактаби	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Aviasozlar 4-12	302531255	56	3	1	2	0	0	0	0	0	0
69	АКЦИОНЕРНОЕ ОБЩЕСТВО "AVIASOZLAR DEHQON	Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Beshariq ko`chasi, 1-uy	202788871	54	3	1	2	0	0	0	0	0	0

	BOZORI"												
70	Яшнобод тумани халқ таълими бўлими	Toshkent shahar, Yashnobod tumani, Farg‘ona yo‘li ko‘chasi, 543-uy	200555292	70	6	1	4	0	0	0	0	0	1
71	Яшнобод тумани 141-мактабгача таълим ташкилоти	Бешариқ МФЙ Авиасозлар 2 19-уй	300785700	47	3	1	2	0	0	0	0	0	0
72	Яшнобод тумани 222-мактабгача таълим ташкилоти	С.Азимова 20 уй	200835861	47	3	1	2	0	0	0	0	0	0
73	Яшнобод тумани 306-мактабгача таълим ташкилоти	Парвоз МФЙ Авиасозлар1 117-уй	300942330	41	3	1	2	0	0	0	0	0	0
74	Яшнобод тумани 329-мактабгача таълим ташкилоти	Фазогир МФЙ Авиасозлар 2 40 -уй	300785867	49	3	1	2	0	0	0	0	0	0
75	Яшнобод тумани 1-сонли болалар-ўсмирлар спорт мактаби	TOSHKENT SHAHRI, YASHNOBOD TUMANI, UYSOZLAR KO`CHASI,	302517058	50	3	1	2	0	0	0	0	0	0
76	Яшнобод тумани 405-мактабгача таълим ташкилоти	Наврўзобод МФЙ Авиасозлар 4 -37 уй	300785692	53	3	1	2	0	0	0	0	0	0
77	Яшнобод тумани 435-мактабгача таълим ташкилоти	Уйсозлар МФЙ Қурувчи 11-уй	300942379	45	3	1	2	0	0	0	0	0	0
78	Яшнобод тумани 454-мактабгача таълим ташкилоти	Наврўзобод МФЙ Авиасозлар 4 -19 уй	300785717	53	3	1	2	0	0	0	0	0	0
79	Яшнобод тумани 602-мактабгача таълим ташкилоти	Қўйлиқобод МФЙ Турсунходжаева 5-уй	301171364	41	3	1	2	0	0	0	0	0	0

80	Яшнобод тумани 55-мактабгача таълим ташкилоти	Марифат МФЙ Фарғона йўли 23-уй	300942419	37	2	1	1	0	0	0	0	0	0
81	Яшнобод тумани 370-мактабгача таълим ташкилоти	Мумтоз МФЙ Каримов куч 6-уй	301238650	37	2	1	1	0	0	0	0	0	0
82	Яшнобод тумани 11-мактабгача таълим ташкилоти	Илтифот МФЙ Илтифот 7-уй	303120838	32	2	1	1	0	0	0	0	0	0
83	Яшнобод тумани 237-мактабгача таълим ташкилоти	Авиасозлар МФЙ Авиасозлар 2 7-уй	306826414	32	2	1	1	0	0	0	0	0	0
84	Яшнобод тумани 416-мактабгача таълим ташкилоти	Янги Давр МФЙ Оқ дарё кўчаси 120-уй	300942362	30	2	1	1	0	0	0	0	0	0
85	Яшнобод тумани 510-мактабгача таълим ташкилоти	Машинасозлар МФЙ Машинасозлар 4-а уй	300942394	30	2	1	1	0	0	0	0	0	0
86	Яшнобод тумани 517-мактабгача таълим ташкилоти	Янгинур МФЙ Мураббий 84	300942465	30	2	1	1	0	0	0	0	0	0
ЖАМИ				**26853**	**1200**	**234**	**677**	**83**	**34**	**32**	**37**	**10**	**94**